

XIX ASR MISR VA TURKISTONDAGI MA'RIFATPARVARLIK QARASHLARINING SHAKILLANISHI

Jo'raboyeva Ruxsora Muhiddinjon qizi

*TDSHU.Sharq sivilizatsiyasi va
falsafa fakultiteti 2-kurs magistranti*

“An-Nahda al-arabiya” tushunchasi “uyg'onish” yoki “arab Renessansi”²⁵ ma'nolarida keng qo'llaniladi. XIX – XX asr boshlari arab mamlakatlarida madaniy yuksalish davri hisoblanadi. Umuman olganda, bu hodisa rivojlangan arab mamlakatlarida arablarning ongidagi va ijtimoiy hayotidagi «yevropalashtirish » deb tushuniladi. Ushbu jarayonda arablar hayotida keskin siljishlar ro'y berdi. Bu – madaniy hayot jonlanishi, yangi arab adabiyoti shakllanishi, ma'rifatparvarlik harakati va musulmon islohciligi paydo bo'lishi, eski tuzumga qarshi hamda milliy ozodlik harakatiga nazariy zamin yaratish uchun g'oyalar ishlab chiqilishi bilan ifodalanuvchi davr edi. Ushbu davrda mutafakkirlar va adiblar barcha vatanparvar ziyolilar ijodida diniy islohcilik g'oyalari, mustaqillik uchun kurash, G'arbning ilg'or fani va madaniyatini o'rganish masalalari, xalq orasida ilm-ma'rifat tarqatish g'oyalari o'z aksini topdi.

Bu jarayon XIX asr birinchi choragidan, Muhammad Alining(1805–1848) ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, harbiy va yer islohotlari orqali hamda Yevropa mamlakatlari bilan madaniy aloqalar o'rnatila boshlagach, rivoj topdi. Bunga Napoleonning Misr va Falastinga yurishi (1798-1801) turtki bo'ldi.Fransuzlarning Misrga kirib kelishi va bu yerda uch yil davom etgan istilosi misrliklar hayotida ma'lum o'zgarishlar yuz berishiga sabab bo'ldi. Xalq orasidan chiqqan va hukmdor darajasiga ko'tarilgan Muhammad Ali Misr tarixida yorqin iz qoldirdi. Muhammad Alining buyuk xizmati shundaki, rasman Turkiya tarkibida bo'lgan Misr mustaqil davlatga aylandi. Misr sanoati va qishloq xo'jaligi birmuncha rivojlandi. Yer islohoti natijasida yirik yer egalariidan, vaqflardan olingan erlar davlat ixtiyoriga o'tdi: harbiy islohotlar natijasida kuchli armiya va xarbiy-dengiz floti tuzildi. Madaniyat va ma'rifat sohalarida ham islohotlar o'tkazildi. Muhammad Ali yevropacha shakldagi xususiy maktablar ochdi, iqtidorli yoshlarni Fransiyaga ta'lim olishga yubordi, bosmaxona ochdi, o'z matbuotini yaratdi va Suvaysh kanalining qurilishi loyihasini tayyorlay boshladi.

“1870 yilda Misrda xadiv Ismoil podsha teatr ochildi, dramaturg Yoqub Sannu unga bir necha piesa yozib berdi. u Yevropa dramaturgiya va sahnalashtirish ishlari hamda uslublari bilan yaxshi tanish edi. XIX asrning 70-yillari o'rtalarida suriyaliklardan Adib Ishoq va Salim Nakom Iskandariyada arab teatri ochishga muvaffaq

²⁵ Крачковский И.Ю. Исторический роман в современной арабской литературе / Избранные сочинения. – М.: Изд-во АН СССР, 1956. –190 с.

bo'lishdi. Suriya shaharlarida teatr bo'lmasa-da, klub to'garaklarida, ayniqsa, Suriya ma'rifatparvarlar jamiyatida spektakllar tez-tez qo'yilardi. Damashqda 1868 yilda Ibrohim Ahdabning (1826-1891) «Aleksandr Makedonskiy» tragediyasi qo'yildi. Salim al-B'yostoniy V. Shekspirning «Otello» tragediyasini tarjima qildi. Uning «Romeo va Jyulietta»ga o'xshatib yozgan «Qays va Layli»piesasi 1868 yili Bayrutda sahnalashtirildi. Shekspir tragediyalari, Molier komediyalari arablar tomonidan qizg'in kutib olindi»²⁶.

Misrda ma'rifatparvarlik qarashlari shakllanishi, teatrlar, xususiyl maktablari ochilishida Yevropa madaniyatining tasiri katta bo'ldi. Yevropacha ta'lim tizimi, harbiy, ijtimoiy-siyosiy ilmlarni o'rganish ehtiyojini yaxshi anglagan Misr hukumdorlari jumladan Muhmmad Aliy bir qancha yoshlarni ta'lim olish Fransiyaga yuborishi ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Ko'rinib turibdiki, «an-Naxda» arablar ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida katta o'zgarishlarga olib keldi. «An-Naxda»tufayli arab ijtimoiy tafakkurida yangi yo'nalishlar, yangicha mafkuraviy oqimlar vujudga keldi. Bu davrdagi mavjud oqimlar orasida arab ma'rifatchilik harakati alohida o'rin tutdi. Arab ma'rifiy tafakkurining asosiy mazmuni ilg'or kuchlarning g'oyaviy-siyosiy kurashidan iborat bo'lib, arab dunyosini eskilik, tushkunligidan, siyosiy istibdoddan xalos etishga qaratilgandi.

G'oyaviy jihaddan Turkiston jadidlarining maqsadlari ham shunday edi. Shu o'rinda buni jadidlar faolyati bilan qiyoslasak, Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari ham Turkistonni o'rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish, «Usuli qadim» ni inkor etgan holda o'lkani, xalqni, millatni zamonaviy mutaraqqiyo yo'lga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, konstitutsion, parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat ko'rish, turkiy tillarga davlat tili makomini berish, milliy pul birligi, milliy qo'shin tuzish, rus taraqqiyparvarlari, ma'rifatchilarining Turkiston o'lkasida ma'rifatparvarlik g'oyalarini tarqatish uchun imkoniyatlar yaratish edi. Demak, Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi asta-sekin bo'lsada milliy ozodlik mafkurasiga asoslanib bordi. Bu jarayon o'lkadagi maxalliy xalqning ongiga o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Natijada ular Turkistonda mustaqillik, milliy taraqqiyot uchun, xalqning manfaatlari uchun kurash olib borishga milliy – ozodlik harakati uchun zamin tayyorlashga muvaffaq bo'ldilar. Yerli xalqlar orasida mustamlakachilikka qarshi ma'rifatchilik g'oyalari tarqala boshladi, yangi ta'lim-tarbiya shaxobchalari, yangi maktab, maorif, madaniy targibot, jadidchilik harakati rivoj topdi. Mana shunday sharoitda Turkistonda ko'plab ma'rifatchilar yetishib chiqdi.

“Turkistonda jadidchilik harakati uch soha orqali faoliyat ko'rsatdi. Bular – maorif (yangicha maktablar ochish, ta'lim usulini yangilash), san'at (badiiy adabiyot, teatr) va matbuot. Asosiy maqsad millatni, bir tomondan, ilm-ma'rifatli qilish bo'lsa, ikkinchi

²⁶ Babyeva E. Ma'rifat yo'lida. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – B.10.

tomondan uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg'unlashuvi natijasida, uzligini, o'z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga yetkazish edi"²⁷.

Turkiston jadidchilari tomonidan ana shu maqsadni amalga oshirish yo'lida katta ishlar qilindi.

Turkiston va Misrdagi ma'rifatparvarlik harakatining o'xshash taraflari ko'p. Jumladan har ikki makondagi bu harakatlarning asosiy maqsadi xalqni farovon qilish, ilm-ma'rifat bilan tanishtirish edi. Bu maqsad uchun har ikki harakatda ta'lim asosiy vosita bo'lishi kerak edi. Lekin bu g'oyalarni hukumdorlar tomonidan qabul qilinishi va tarqalishi turlicha kechdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1¹ Крачковский И.Ю. Исторический роман в современной арабской литературе / Избранные сочинения. – М.: Изд-во АН СССР, 1956. –190 с.

2. ¹ Babyeva E. Ma'rifat yo'lida. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – B.10.

3. ¹ Muhammadjonova L. Jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. – T.: O'zMU, 2007. – B. 32.

²⁷ Muhammadjonova L. Jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. – T.: O'zMU, 2007. – B. 32.